

**TARIXIY YODGORLIKLAR ASOSIDA TALABALARDA
MILLIY ONG VA VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISH
MEXANIZMLARI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, "Pedagogika va
psixologiya" kafedrası o'qituvchisi **Ismoilov Behruz Isroilovich***

Email: behruzjon.ismoilov@mail.ru

UDK: 37.034

ORCID ID: 0009-0008-4054-5845

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda tarixiy obidalar va ular asosida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tarixiy obidalariga sayohatlar, muzey ekskursiyalari, seminar-treninglar, dramatik chiqishlar kabi tadbirlarning talabalarda tarixiy ong, milliy g'urur va Vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirishdagi ta'siri ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot davomida tahliliy va empirik uslublar qo'llanilib, talabalar orasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga tayangan holda aniq xulosalar chiqarilgan. Muallif tomonidan tarixiy merosdan samarali foydalanish orqali yoshlar tarbiyasini yanada chuqurlashtirish bo'yicha tavsiyalar ham berilgan.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, talabalar, tarixiy obidalar, ma'naviy tadbirlar, milliy g'urur, tarixiy ong, yoshlar tarbiyasi, madaniy meros, oliy ta'lim.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль и значение исторических памятников и духовно-просветительских мероприятий, проводимых на их основе, в формировании патриотических чувств у студентов. Научно обосновано влияние таких мероприятий, как экскурсии к историческим памятникам, посещение музеев, семинары-тренинги и театрализованные представления, на развитие*

исторического сознания, национальной гордости и преданности Родине у молодежи. В исследовании использованы аналитические и эмпирические методы, а также приведены конкретные выводы на основе результатов анкетирования студентов. Автор также дает рекомендации по более эффективному использованию исторического наследия в воспитании молодежи.

Ключевые слова: патриотизм, студенты, исторические памятники, духовные мероприятия, национальная гордость, историческое сознание, воспитание молодежи, культурное наследие, высшее образование.

Annotation: *This article analyzes the role and significance of historical monuments and the spiritual-educational events organized around them in fostering patriotic feelings among students. It scientifically substantiates the impact of activities such as excursions to historical sites, museum visits, seminars, trainings, and theatrical performances on the development of historical consciousness, national pride, and devotion to the homeland among youth. Analytical and empirical methods were used in the research, and clear conclusions were drawn based on survey results conducted among students. The author also provides recommendations for effectively utilizing historical heritage in the education and upbringing of the younger generation.*

Keywords: *patriotism, students, historical monuments, spiritual events, national pride, historical consciousness, youth education, cultural heritage, higher education.*

Kirish

Bugungi globallashuv davrida yosh avlod qalbida milliy g'urur, tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish eng dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni ma'naviy jihatdan yetuk, o'z yurtining tarixini chuqur anglaydigan, milliy qadriyatlarini qadrlaydigan shaxs etib tarbiyalash muhimdir. Bu jarayonda

tarixiy obidalar va ularga asoslangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada aynan shu omillar vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishdagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi.

Uslub

Maqola yozilishida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

- **Tahliliy yondashuv** – tarixiy obidalar va ularning tarbiyaviy ahamiyati haqida mavjud adabiyotlar o'rganildi;
- **Empirik kuzatuv** – Oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar misolida talabalarda yuzaga kelgan vatanparvarlik hissi o'rganildi;
- **Suhbat va so'rovnoma usuli** – talabalarning tarixiy obidalarga bo'lgan munosabati va undagi taassurotlari tahlil qilindi;
- **Taqqoslash va umumlashtirish** – tarixiy merosga asoslangan tadbirlar va boshqa tarbiyaviy usullar samaradorligi solishtirildi.

Natijalar

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tarixiy obidalarni bevosita borib ko'rish va ular bilan tanishish talabalar qalbida milliy g'urur, tarixiy xotira va Vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytiradi. Jumladan, tarixiy shaharlarga – Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi maskanlarga uyushtirilgan sayohatlar natijasida talabalar o'z milliy merosi bilan faxrlanish hissini chuqurroq his etganini bildirganlar. Shuningdek, o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalarning aksariyati tarixiy obidalar bilan tanishish ularning vatanparvarlik tuyg'usini oshirishda muhim ahamiyat kasb etganini ta'kidlashgan. Tarixiy mavzular asosida tashkil etilgan seminar-treninglar, muzey ekskursiyalari va sahna ko'rinishlari esa talabalar tarixiy ongini shakllantirishda va ularni milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashda samarali vosita bo'layotgani aniqlandi. Bu natijalar, o'z

navbatida, tarixiy merosning yoshlar tarbiyasidagi o'rnini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Munozara. Natijalardan kelib chiqib aytish mumkinki, tarixiy obidalar va ularga asoslangan tadbirlar yosh avlodni ruhiy jihatdan yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega. Tarixiy merosga ega bo'lgan maskanlarga sayohat, ularning tarixi haqida chuqur bilim beruvchi ma'naviy tadbirlar orqali talabalar o'zlikni anglash, tarixni qadrlash va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalanmoqda. Bunday faoliyatlar bevosita "Tarixni bilmagan – kelajagini yo'qotar" degan haqiqatni isbotlaydi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ushbu tadbirlarni interaktiv shakllarda (masalan, tarixiy kvestlar, virtual ekskursiyalar) o'tkazish samaradorlikni yanada oshirishi mumkin.

Xulosa. Yosh avlodda vatanparvarlikni shakllantirishda tarixiy obidalar va ular asosida tashkil etilgan ma'naviy tadbirlar muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Bu orqali talabalarda o'z milliy ildizlariga hurmat, tarixiy merosga g'urur, Vatanga sadoqat kabi fazilatlar mustahkamlanadi. Shunday ekan, oliy ta'lim tizimida bu boradagi ishlarni tizimli va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori: "Ma'naviyat va ma'rifat ishlarini tubdan takomillashtirish to'g'risida" (2021).
2. Sharipov Z. "Talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda tarixiy obidalarining o'rne", // Pedagogika jurnali, 2022.
3. G'afurova D. "Vatanparvarlik tarbiyasida muzeylarning o'rne", // Yoshlar va Ma'naviyat, 2023.
4. UNESCO. "The Role of Cultural Heritage in Education", 2021.
5. Maxmudov Shokir Kamolovich. Ta'lim va psixik rivojlanish pedagogik psixologiya nigohida. Tadbirkorlik va pedagogika. Ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN: 2181-2659. [1/2024].

6. Махмудов, Ш. К. (2021). ПРОФЕССИОНАЛИЗМ И ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 45-50.